

**MAKTAB GEOMETRIYASINI O'QITISHDA TAYYOR
CHIZMALARDAN FOYDALANISHNING AVFZALLIGI HAQIDA.**

PhD -A.A. Parmanov

JDPI, Umumiy matematika kafedrasи,

M.I. Parmanova

Jizzax shahar 17maktab o'qituvchisi,

M.A. Mamarahimova

Toshkent shahar, M. Ulug'bek tumani, 275-maktab o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab geometriyasini o'qitishda tayyor chizmalardan foydalanishning avfzalliklari haqida bo'lib, unda chet el tajribalaridan foydalanimagan va uning o'qitishda ijobiy ta'sirlari ko'rsatib berilgan.

Annotation: This article discusses the advantages of using ready-made drawings in the teaching of school geometry, using foreign experience and its positive effects in teaching.

Аннотация: В статье рассматриваются преимущества использования готовых чертежей в обучении школьной геометрии с использованием зарубежного опыта и его положительные эффекты в обучении.

Kalit so'zlar: Tayyor chizma, masala, fazoviy tasavvur.

Keywords: Ready drawing, problem, spatial imagination.

Ключевые слова: готовый рисунок, задача, пространственное воображение.

O'quvchilar yangi mavzuni puxta o'zlashtirishlari uchun yangi kiritilgan tushunchalarni mazmun va mohiyat jihatdan to'liq o'zlashtirib olishlari kerak, ayniqsa, geometriya darsida ularning bilimlarini mustahkamlash uchun amaliy masalalardan foydalanimadi. O'qitishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri, mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari sinflarida, ayniqsa, shahar maktablarida o'quvchilar sonining ko'pchiligidir. Bunda yangi mavzuni o'quvchilar ongiga yetqazib berish, yangi mavzuni chuqur va mukammal o'zlashtirishini

ta'minlash, ayniqsa, ularning bilimini nazorat qilish o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi.

Bunday muammolarni hal qilishda chet el tajribalaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya respublikasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida geometriya darslarida maktab darsliklaridan tashqari har bir sinflar kesimida tayyor chizma ko'rinishida berilgan masalalardan foydalaniladi [1,2,3].

Ma'lumki, geometriya fani o'quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Albatta, bunda geometriya fanining abstrakt tushunchalari va hayotiy reallik orasidagi munosabat, o'quvchida geometrik tasavvurni hayotiy voqeylek bilan farqini anglash qiyinchiligi paydo bo'ladi. Geometriya fanida fazoviy tasavvurni rivojlantirishda geometrik tasavvurning o'rni beqiyos. Ammo geometrik masala va nazariyani o'rganishning eng og'ir qismi, berilgan shartlar to'plamiga mos keluvchi shaklni yasab olishdadir. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu qiyinchiliklarni engishda geometrik masalalarda tayyor chizmalardan foydalanish kerak. Masalani chizma va unga shartlarni ko'rgazmali taqdim qilinishi o'quvchilarga tezroq uning mazmuniga kirishga va uni echishga imkon beradi. Bunda chizmani chizishga vaqt sarflashning hojati yo'q, bu esa darsning bir qismini egallaydi va ba'zida qiyinchiliklar tug'diradi. E.M.Balayanning fikricha "Ba'zida o'quvchiga chizmani yasashdan ko'ra masalani echish osonroq tuyuladi, shuning uchun tayyor chizmalardan foydalanish foydalidir. Bu masalalar o'qituvchigan kam o'quv vaqtি sarflab katta hajmdagi materialni takorlash imkoniyatini beradi» [1]. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida shuni ko'ramizki, ularda matematikani o'qitishda, masalan, Germaniya ta'limida masalalar kundalik turmush tarzidan, real voqealar asosida beriladi[4]. O'quvchilarni fanni o'rgatish barobarida kundalik turmush hayotiga ham tayyorlab boradi. Bu vazifalar atrofdagi hayotning turli jihatlariga taalluqli haqiqiy muammoli vaziyatlarga yaqin bo'lib, muktab hayoti, jamiyat, o'quvchilarining shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyat, sport va hokazolar haqida ma'lumot beradi.

Matematikani o'qitishda tayyor chizmalardan foydalanish o'qitish jarayoniga quyidagicha ijobiy ta'sir etadi:

- 1) o'quvchilarning bilim olish sur'atini oshiradi;
- 2) dars davomida vaqtdan unumli foydalanadi;
- 3) dars ko'rgazmali ko'rinishida o'tiladi;
- 4) o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi;
- 5) o'quvchilarda fazoviy tasavvur yaxshi rivojlanadi;
- 6) o'quvchilarda kreativ qobiliyat tez rivojlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Balayan E.N. Геометрия: задачи на готовых чертежах для подготовки к ГИА и ЕГЭ: 7-9 классы. Изд. 5-е, исправл. и дополн. -Ростов на Дону: Феникс. 2013, 254 с.
2. Balayan E.N. Геометрия. Задачи на готовых чертежах для подготовки к ОГЭ и ЕГЭ. 7 класс. Профильный уровень. -Растов на Дону: Феникс. 2018, 51 с.
3. Balayan E.N. Геометрия. Задачи на готовых чертежах для подготовки к ОГЭ и ЕГЭ. 8 класс. Профильный уровень. -Растов на Дону: Феникс. 2018, 156 с.
4. Arno Lergenmüller. Mathematik neue wege 8 arbeitsbuch fur gymnasien. -Berlin: Schroedel. 2008, 284 p.